

SIYOSIY JARAYON VA SIYOSIY ISHTIROK

Jozilova Dilrabo Zafar qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Siyosatshunoslik yo`nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy jarayonni tashkil etuvchi hodisalar, vaziyatlar, sabab-oqibatlarining o`zaro bog`liqligi, siyosiy jarayon siyosatda ishtirok etuvchi barcha sub`ektlar faoliyati natijasi ekanligi, siyosiy jarayon siyosiy hokimyat tizimiga qaratilgan faoliyatdan iborat ekanligi to`g`risida ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada siyosiy jarayonda siyosiy ishtirokning roli, ilmiy adabiyotlarda bir qator ta`riflari hamda siyosiy ishtirokning shakllari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so`zlar: Jarayon, siyosiy munosab, siyosiy manfaat, siyosiy tizim, resurs, siyosiy faollik, subyekt, ishtirok, siyosiy qaror.

POLITICAL PROCESS AND POLITICAL PARTICIPATION

Abstract: In this article, there is information about the events, situations, cause-and-effect relationships that make up the political process, the fact that the political process is the result of the activities of all subjects participating in politics, and that the political process consists of activities aimed at the system of political power. Also, the article provides information about the role of political participation in the political process, a number of definitions and forms of political participation in scientific literature.

Keywords: Process, political attitude, political interest, political system, resource, political activity, subject, participation, political decision.

ПОЛИТИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ПОЛИТИЧЕСКОЕ УЧАСТИЕ

Абстрактный: В данной статье содержится информация о событиях, ситуациях, причинно-следственных связях, составляющих политический процесс, о том, что политический процесс является результатом деятельности всех субъектов, участвующих в политике, и о том, что политический процесс состоит из деятельность, направленная на систему политической власти. Также в статье приведены сведения о роли политического участия в политическом процессе, ряд определений и форм политического участия в научной литературе.

Ключевые слова: Процесс, политическая позиция, политический интерес, политическая система, ресурс, политическая деятельность, субъект, участие, политическое решение.

Siyosat turli shakllarda namoyon bo`ladi. Uning xilma-xil jihatlari mavjud. Siyosiy nazariyada siyosatning shakli, mazmuni va munosabatlarini ya`ni jarayonlarini ajratish qabul qilingan.

Siyosiy jarayon fanda siyosatni tushuntirish va o`rganishning turli xil usullaridan tashqari uni yo`nalishlar va qismlarga bo`lib o`rganish imkoniyatiga ham egadirlar, ulardan biri “siyosiy jarayon” tushunchasidir. “Jarayon” tushunchasi lug`aviy ma`nosи lotin tilidan “processus-prosess” ya`ni “oldinga harakat” ma`nosini anglatib, siyosiy fanlarda “qandaydir holat yoki hodisani izchil qonunyatli tarzda o`zgartirish” deb tushuniladi.

Siyosatshunoslikda, umumiy holatda olinganda, bir siyosiy voqealikdan boshqasiga ma'lum bir vaqt oralig`ida o`tish hodisasining ro`y berishi siyosiy jarayon tushunchasi bilan izohlanadi. boshqacha aytganda siyosatning turli subyektlarini ma'lum bir maqsadga yo`naltirilgan faoliyatları natijasida, murakkab ichki bog`lanish asosida ketma-ket ro`y beruvchi siyosiy voqealik va hodisalar siyosiy jarayonni tashkil qiladi. Siyosiy jarayon siyosiy fanning markaziy va o`ziga xos kategoriylaridan biridir. Shuning uchun ham siyosiy jarayon jamiyat siyosiy tizimining tarkibiy qismlarini takror ishlab chiqish hamda ishlab chiqish jarayonidagi holat o`zgarishlarining dinamik o`lchovi hisoblanadi.

Siyosiy jarayonning muhim o`iga xos xususiyati shundaki, yetakchilarning nazariy tasavvurlari asosida yoki fanda ko`rsatilgan yo`l-yuriqlariga muvofiq ravishda emas, balki mavjud voqealikni ifodalashga qaratilgan bo`lib, bu karayonda hokimyat instituti faoliyati, fuqarolar va guruqlar siyosiy hulqiningturli turlari uyg`unlashuvi sodir bo`lib, ularning bir yig`indiga to`planish hodisasi ro`y beradi. Siyosiy jarayon siyosatning mazmunini uning subyektlari funksiyalarini ijrosining turli shakllari vositasida ochib beradi.

“Siyosiy jarayon” tushunchasini siyosiy munosabatlar va hodisalarning ichki bog`liqlikka ega zanjiri, siyosat subyektlarining hokimyatga qaratilgan faoliyatining o`zaro munosabatlar birligidir.

Siyosiy jarayonlar bevosita siyosiy ishtirok ko`lami asosida shakllanadi. Shu jihatlar, siyosiy jarayonning mazmuni fuqarolarning siyosiy xohish-istikclarini bildirishlarning ikkita shaklini o`z ichiga oladi:

Birinchidan, bu-siyosiy jarayon oddiy ishtirokchilarning turli-tuman ko`rinishdagi siyosiy faoliyatida o`z manfaatlarini ifodalashlarning turli usullaridir:

Saylovlar, referendumlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kabidagi ishtiroki misol bo`la oladi.

Ikkinchidan, siyosiy jarayonda oddiy ishtirokchilarning turli-tuman ko`rinishdagi siyosiy faoliyatda bevosita va bilvosita ishtirok etish usulida namoyon bo`ladi.

Siyosiy yetakchilik va elita tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va ularni amalga oshirishda ishtirok etish bunga misol bo`la oladi.

Umuman, siyosiy ishtirok- siyosiy jamiyatning har qanday mahalliy yoki umummilliy darajalarida xususiy kishilarning davlat siyosatiga ta'sir etish, davlat ishlarini boshqarish yoki siysoiy yetakchilarni saylash maqsadlaridagi xatti-harakatlardir.Siyosiy ishtirok uyushtirilgan yoki uyushtirilmagan, tasodifiy yoki muttasil, qonuniy yoki noqonuniy usullardan foydalanish shakllarida bo'lishi mumkin. Shuningdek, siyosiy ishtirokning ilmiy adabiyotlarda bir qator ta'riflari mavjud bo`lib, ular quyidagicha:

-siyosiy ishtirok ixtiyoriy faoliyat bo`lib, uning vositasida jamiyat a'zolari hukmdorlarni saylashda va to`g`ridan to`g`ri yoki bilvosita davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etish. U doimiy yoki vaqtinchalik, uyushgan yoki uyushmagan bo'lishi, hokimyatning qonuniy yoki noqonuniy usullaridan foydalanish mumkin.

- siyosiy ishtirok ijtimoiy-siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimyat tarkibiga jalb etilganligidir.

Siyosiy ishtirokning muhim jihatlaridan biri bevosita siyosiy qarorlarning qabul qilinishida ishtirok etish yoki unga ta'sir ko`rsatishdan iboratdir. Siyosiy qaror bevosita siyosiy jarayonn denamokasini ham belgilab beradi.Aqsh siyosatshunosi R.Makridis fikricha, qarorlar qabul qilsh- "siyosatning eng muhim ijtimoiy funksiyasidir". Siyosiy jarayonlarda ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari ham faol qatnashadilar. Jamiyat siyosiy hayotida bu tashkilotlar u yoki bu darajada faollik ko`rsatadilar. Buning misoli O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo`lim VIII bob "siyosiy huquqlar"da ko`riladi:

36-modda: "O`zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o`z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o`zini o`zi boshqarish, referendumlar o`tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi."

39-modda. " O`zbekiston Respublikasining fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqga egadir.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimyat vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas."

Taniqli ingliz olimi E.Xeyvud fikricha, " siyosiy jarayon" tushunchasi ijtimoiy ya'ni davlat va hukumat siyosati "yaratiladigan" mexanizmiga ta'lulqidir. Uningcha, siyosat ishlab chiqarishni jarayon sifatida ikki xil ma'noda tushunish mumkin: Birinchidan, u tadbir yoki xatti-harakatning ketma-ket izchilligi haqida bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, jarayon ishlab chiqarish vositasi hamdir.

Siyosiy jarayon quyidagi tarkibiy qismlaridan iborat:

• Siysoiy munosabatlari. Subyektlarning hokimyat doirasidagi siyosiy manfaatlarini boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi aloqalar. Siyosiy munosabatlarning amalga oshishi natijasida siyosiy jarayonning yangilanishi, siysoiy g`oyalar, bilimlar, tajriba, qadriyatlar, axborotlar va h.k., shuningdek siyosiy faoliyat shakllari va usullarini to`planishi va uzatilishi ro`y beradi.

• Siyosiy jarayon subyektlari. Siyosiy jarayon ishtirokchilari. Ular shaxslar, qatlamlar, etnoslar, confessional va demografik guruhlar va siyosiy institutlar kiradi. Ikkita muhim jihatni birlashtiradi: onglilik va faollik.

• Siyosiy xulq-atvor. Shaxs ijtimoiy guruhlarning siyosiy hokimyatni amalga oshirishda, o`z siyosiy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish shakli. Siyosiy ishtirok. Siyosat subyektlarining siyosiy munosabatlariga jalb qilinganligi.

Siyosiy jarayonning klassifikatsiyasiga to`xtaladigan bo`lsak, siyosatning tashqi, xalqaro hamda ichki siyosat turlariga bo`linib, uning ko`rinishi; birinchidan, global, mintaqaviy darajadagi siyosiy jarayon. Ikkinchidan, mamlakat doirasidagi siyosiy jarayon.

Siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyat shundaki, ularni yaxlit bir tizim holida o`rganib bo`lmaydi. Binobarin, siyosiy jarayonlar o`z xarakteriga ko`ra ikki guruhga bo`linadi:

1. Umumiylar;
2. Xususiy siyosiy jarayonlar.

Bunda umumiylar siyosiy jarayonlar butun jamiyatni qamrab oladi va jamiyatda mavjud siyosiy tizimning o`zgarishiga olib keladi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, umumiylar siyosiy jarayonlar xususiy siyosiy jarayonlar yig`indisi emas. Umumiylar siyosiy jarayonlar quyidagi uch shaklda amalga oshiriladi:

- Evolutsion (tadrijiy);
- Revolutsion (inqilobi);
- Krizis (inqiroz).

Xususiy siyosiy jarayonlar jamiyatda muommo va qarama-qarshiliklarning paydo bo`lishi va ularning o`z yechimlarini talab qilishlari natijasida paydo bo`ladi. Xususiy siyosiy jarayonlarning tarkibiy elementlari quyidagilardir;

- Sabab va uning paydo bo`lishi;
- Obyekt va subyekt;
- Maqsad.

Siyosiy jarayon hokimyatni harakatda o`rganadi. Shu sababli, siyosiy jarayon mavjudligining uchta tartibi ajratiladi: turg`unlik, rivojlanish va inqiroz tartiblari.

1. Turg`unlik tartibida shakllanib bo`lgan siyosiy munosabatlar odatda chegaralarda tutib turiladi. Bu tartibda siyosat subyektlari faoliyatida konservativizm va an`analarga sodiqlik yetakchilikda bo`ladi.

2. Rivojlanish tartibida jamiyat ichidagi va xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlarga muvofiq ravishda siyosiy tizimning boshqaruv va amal qilish uslublari o'zgara boshlaydi.

3. Inqiroz tartibi- siyosiy yaxlitlikning yo`qolishi, markazdan qochma kuchlarning ortib borishi, hokimyat qabul qilayotgan qarorlarning bajarilmasligi, siyosiy hokimyat legitimligini yuqolib borilishini anglatadi.

Mazkur dinamika siyosiy jarayon bosqichlari sifatida ham e'tirof etiladi va unga nisbatan tadqiqotchi D.Iston biroz boshqacha yondashgan. D.Iston fikriga ko`ra, siyosiy jarayon natijasida jamiyatning institutsional tizimi yangi holatga moslashib, o`zini-o`zi yana qayta tashkil qilib, o`zgarib boradi. Shu bois siyosiy jarayon bir-biri bilan bog`liq bo`lgan to`rt bosqichdan iborat bo`lishi mumkin, deb hisoblaydi:

Bular quyidagilar:

1. siyosiy tizimning shakllanishi.
2. mavjud siyosiy tizimning faoliyat yuritilishi.
3. siyosiy tizimning rivojlanishi.
4. siyosiy tizimning rivojlanishining pasayishi.

Siyosiy jarayomlar barqarorligining ajralib turuvchi beligi - bu uning fuqarolar o`z demokratik huquqi va erkinligini amalga oshirishning yuksak darajada institutlashganligi. Taniqli olim A.Xadiniusning fikricha, siyosiy jarayon barqarorligining eng ishonchli asosi kishilarning demokratik qadriyatga berilganligi bo`lib, bu qadriyatlar "ko`pchilik fuqarolar va partiya tashkilotlarini birlashtiruvchi umumiyy mafkura" sifatida namoyon bo`lishi lozim. Bunday holatda siyosiy ishtirok kishilar tomonidan xavfli va qattiqul muxoliflar bilan kurash shakli deb qaralmaydi.

Siyosiy ishtirok tushunchasi demokratiya kontsepsiyalarda, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar doirasida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo`llaniladi. Siyosiy ishtirok subyektlariga individlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar kiradi. Ko`lami jihatidan siyosiy ishtirok mahalliy, mintaqaviy, umum davlat va xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi. Siyosiy ishtirok shakllari ham turlich bo`lib, ularga:

- Axborot qabul qilish va uzatish;
 - Siyosat va davlat arboblari, hamda tashkilotlar bilan muloqot;
 - Saylov va boshqa siyosiy kompaniyalarda ishtirok;
 - Namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlarida va inqiloblarda ishtirok;
 - Boshqaruv va o`z- o`zini boshqaruvida ishtirok;
 - Qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda ishtirok;
 - Siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar faoliyatida ishtirokler kiradi.
- Siyosiy ishtirokning quyidagi asosiy turlarini sanab o`tish mumkin:
1. to`g`ridan to`g`ri (bevosita) va bilvosita siyosiy ishtirok;

2. umumiylar va cheklangan siyosiy ishtirok;
3. ixtiyoriy va majburiy siyosiy ishtirok;
4. an'anaviy, faol va passiv siyosiy ishtirok;
5. legitim va nolegitim siyosiy ishtirok;
6. qonuniy va noqonuniy siyosiy ishtirok.

Ta'kidlash joizki, siyosatga bo'lgan qiziqishning so'nishiga sabab bo'lgan omillardan biri fuqarolarning hokimyatga ishonchsizlik bilan qarashidir. siyosiy hayotda ishtirok etishidan ixtiyoriy ravishda voz kechgan kishilarning bir necha guruhlari mavjud.

Loqayd odamlar o`zlarinig xususiy muommolarini, o`z kasblarida yuqori pog'onaga ko'tarish talablari bilan butunliy band bo`lib qolganliklari, yengil hayot kechirishga va submadaniyatga bo'lgan rag'batlari tufayli siyosat bilan qiziqmaydigan fuqarolar. Ularning ayrimlari siyatosatni tushunib bo`lmaydigan, zerikarli ma'nosiz bir narsa deb hisoblaydi.

Siyosatdan chetlashgan kishilar- siyosat ulardan voz kechgan deb hisoblovchilar. Ular, biz ovoz berish bermasligimizdan qat'I nazar, siyosiy qarorlar ozchilik tomonidan chiqariladilar deb hisoblaydilar.

Anolik kishilar- o`z imkoniyatlariga, maqsadlarining ro'yobga chiqarilishiga ishonchini, qandaydir ijtimoiy guruhga mansubligini yo'qotgan, ijtimoiy ildizlardan uzilib qolgan kishilar.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy jarayon har qanday bosqichi aniq siyosatni shakllantirishi, muhim g`oyalarni aniq formulaga o'tkazish tushuniladi. Siyosiy jarayonda ishtirok etish konvensional va nokonvensional ahloqiy hatti harakatlarga bog'liq bo`lib inson o`zini hayotda ifodalash vositasida qarashidir. Siyosiy jarayonning o`ziga xosligini O'zbekiston misolida ko'radiganda quyidagicha yondashamiz:

1.O`zbekiston fuqarolik jamiyati yetarlicha rivojlanmaganligi sababli siyosat va siyosiy munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy munosabatlardan mustaqil ravishda mavjud. Natijada siyosiy jamiyat hayotining hamma sohalariga kirib boradi. Iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanishga doir hech bir masala hokimyat aralashuvisz hal qilinmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati rivojlantirish O'zbekistondagi demokratik islohatlarning eng muhim qirrasi bo`lib qolyapdi.

2. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar asosan vertical tarzda, ya'ni yuqoridaan quyiga qarab tashkil etiladi. U hokimyat va jamiyat o`rtasidagi muloqot, kelishuv asosiga quriladi. Jamiyat o`z talablarini hokimyatga vakillik organlari, manfaat guruhlari tomonidan yetkaziladi.

3. O'zbekistonning asosiy jarayonlari davlatning faol siyosat olib borishi bilan harakterlanadi. Bu - bizning davlatchilik an'analaimiz bilan belgilanadi. O'rta Osiyoda "hokimyat jamiyat" munosabatlarida doimo davlat asosiy rol o'ynagan.

4. O'zbekistondagi siyosiy jarayon ishtirokchilarining ko'pchiligi asosan davlat instituti tashkil qiladi. Bu yana fuqarolik jamiyatining u qadar

rivojlanmaganligi bilan bog`liq. Ayni vaqtida siyosiy jarayonlar ishtirokchilar sonini ortishiga qaratilgan harakatlar kuchaymoqd.

O`zbekistondagi siyosiy jarayonlar siyosiy tizim muvozanatini ta'minlash uslublariga ko`ra ko`proq, xarizmatik va ideokratik turlarga xos. Shunga ko`ra jamiyatni birlashtirish uchun milliy g`oyaga kuchli ehtiyoj seziladi va ayni vaqtida, siyosiy yetakchining roli katta bo`ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O`B.Bito`rayev. “Siyosatshunoslikka kirish” : o`uv qo`llanma- Toshkent-“Barkamol fayz media”, 2017.
2. M.Qirg`izboyev. “ Siyosatshunoslik” : o`quv qo`llanma - Toshkent - “Yangi asr avlodi”, 2013.
3. V.P.Pugachev, A.I.Solovyev. “ Siyosatshunoslikka kirish” : - Toshkent-“yangi asr avlodi”, 2004.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/siyosatshunoslik/siyosiy-jarayon>.
5. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Ikkinchchi bo`lim VIII bob.